

KATTAQO'RG'ON TUMAN OBOD...
200 747 472



← Назад **Эркин шаклдаги ҳужжат: 223 15.08.2022 дан**

2022-08-15 16:03:35

ИМЗОЛАНГАН

PDF юклаб олиш

Архив юклаб олиш

Чоп этиш

Буюртма рақами


Қабул акти рақами

Саклаб қолиш

Ҳужжат имзоланган:



сана: 2022.08.15 15:48:56
серия рақами: 778813d7
компания: MAROQAND BUNYODKOR QURILISH
стир: 301327746
фиш: ДАВЛАТОВ АЛИНИЁЗ
email:



сана: 2022.08.15 16:03:32
серия рақами: 77b58dfe
компания: KATTAQO'RG'ON TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI
стир: 200747472
фиш: RASULOV MASARIDDIN
email:



11ED1C87D87303FAA2B71E0008000075

электрон ҳужжат идентификатори

ҲУЖЖАТЛАРНИ ИМЗОЛАШ ПРОТОКОЛИ

Етказиб берувчи
СТИР
Манзил

MAROQAND BUNYODKOR QURILISH
301327746
САМАРКАНДСКАЯ ОБЛАСТЬ ГОРОД
САМАРКАНД КУК САРОЙ МАЙДОНИ 1- БЛОК, "В"
1-КАВАТ

Сотиб олувчи:

СТИР
Манзил

KATTAQO'RG'ON TUMAN OBODONLASHTIRISH
BOSHQARMASI
200747472
ПАЙШАНБА Ш А. НАВОИЙ КУЧАСИ 7 УИ 7

Ҳужжат хақида маълумот

Ҳужжат номи
Ҳужжат рақами ва санаси
Шартномага

Договор
№ 223 дан 15.08.2022
№ 223 дан 12.08.2022

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARI TAYYORLASH BO'YICHA)
223-sonli**

2022 v. «12» 8

39-7-96-OB/2022-son

Kattaqo'rg'on t.

Bizlar Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan NIZOM asosida ish yurituvchi M.Rasulov bir tomondan va «Maraqand Bunyodkor Qurilish» MChJ (Keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi A.I.Davlatov ikkinchi tomondan «Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi» xarid komissiyasining "04" avgust 2022 yildagi 36767-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshiriq'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: Kattaqo'rg'on tuman Qushbegi MFY Shipon qishloq ichki yo'lini joriy ta'mirlash uchun loyiha-smeta, ekspertiza xujjatlarini tayyorlab berish belgilangan norma va qoidalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QOS bilan 11 294100(o'n bir million ikki yuz to'qson to'rt ming bir yuz)so'mni tashkil qiladi. Loyiha-smeta hujjatlari davlat ekspertizasidan o'tgandan so'ng va manzilli dastur tasdiqlangandan keyin shartnomaning umumiy qiymatiga aniqlik kiritiladi.

3. TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-lovda ko'rsatilgan ko'ebalar) bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'tiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, «Bajaruvchi»ning rozilgisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatisiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rioya qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlar va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning rozilgisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarni o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib so'ng ekspertiza xulosasi uchun to'lovlarni amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 3 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini «Buyurtmachi» bergan topshiriqida belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugatgandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

Кўриб чиққан юрист: DJURAYEV ILXOM AKRAMOVICH, Хужжат рақами: ZG7270268742

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning to'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlar bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ni xabardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqfi hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkili qilishi mumkin.

7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni himoyalashi, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmagani tabiiy hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan tabiiy falokatlari natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarilmagan uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar to'g'ri bergan vaqtga matanosh ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqqidir.

9. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini bilan bog'liq holda korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat (lekin cheklanmagan holda) para bermaslik va para talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudga ha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limiga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limida belgilangan tartibda to'lovni amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan munozirlar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalarni qiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlarga va «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariga nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi. Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,1 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan mahyulastirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan tuzatib olingan taraflarning javabgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurimuvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jaimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolanidan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukukiy kuchga kimdi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31-dekabrghacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

"BUYURTMACHI"

Nomi: Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
Manzili: Kattaqo'rg'on tuman M.Ulug'bek mahallasi
B50K: Agmbank Payshamba sh
FON: 22860182157045204110001
21472
M.Rastilov

"BAJARUVCHI"

Nomi: Maroqand Bunyodkor Qurilish MChJ
Manzili: Samarqand sh. Ko'ksaroy maydoni 1, 1-Dokor'Voh'1-qavat.
Bijon qonun Toshkent sh. AT "Aloqabank" bosh ofisi
Hisob raqami: 2020 8000 8048 4141 4001
IBAN: UZ03 1700 0000 0001 1001 301321746
ORXN: 100000115216
Direktor: D. D. Januy



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI
KATTAQO'RG'ON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

141408, Kattaqo'rg'on tumani, Kadan mahallasi, Mustaqillik ko'chasi

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**
№ RM38845667

1. Loyihaning turi.

Shartnoma.

2. Loyihaning nomi.

Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi va «Maroqand Bunyodkor Qurilish» MChJ o'rtasida tuzilgan Kattaqo'rg'on tuman Qushbegi MFY Shipon qishloq ichki yo'lini joriy ta'mirlash uchun smeta-loyiha hujjatlarini tayyorlash xizmati to'g'risidagi 223-sonli pudrat shartnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Shartnoma loyihasi, Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 2022-yil 12-avgustda kiritilgan.

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV-sonli Qaroriga asosan tuzilgan, shuningdek, loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi" to'g'risidagi qonuni va talablariga javob beradi.

Taraflar o'rtasida shartnoma predmeti, yetkazib beriladigan tovarning miqdori, sifati, assortimenti va bahosi, shartnomaning bajarilish muddatlari, shartnomaning amal qilish muddati, hisob-kitob qilish tartibi, taraflarning majburiyatlari, shartnoma shartlari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan javobgarlik masalasi, nizolarni hal etish tartibi tomonlar o'rtasida qonuniy kelishilgan hamda shartnomada taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joy ko'rsatilgan.

Loyihada ko'rsatilgan shartnoma shartlari, taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi amaldagi qonunchilik talablariga mos keladi va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



I.Djurayev

2022-yil 12-avgust

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 128415 на приобретение Қушбеги МФЙ Шипон қишлоқ ички йўлини жорий таъмирлаш учун лойиҳа-смета, экспертиза хужжатларини тайёрлаб бериш

Способ проведения электронный

Дата 04.08.2022

Время рассмотрения 04.08.2022 09:43

Конкурсная комиссия Каттакургон туман Ободонлаштириш бошқармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	RASULOV MASARIDDIN G'OFUR O'G'LI	Туман хокимли бош мутахасисси	Каттакургон туман хокимлиги
Секретарь комиссии	SHARPOV YUSUBJON RAVSHANOVICH	Бўлим бошлиғи	Каттакўрғон туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	ASHUROV FAZLIDDIN XAMROQULOVICH	Бош ҳисобчи	Каттакўрғон туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	QODIROV RAVUBJON RAXMONOVICH	Омбормудир	Каттакўрғон туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	DJAMOLOV AKMAL KAMOLOVICH	Бош муҳандис	Каттакўрғон туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	NURMOMATOV NAG'MATILLO MIYASSAROVICH	Техник назоратчи	Каттакўрғон туман Ободонлаштириш бошқармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 04.08.2022 года № лота 128415.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 95.00 / Весовой коэф. ценовой части: 5.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по разработке проектно-сметных работ
Подробное описание	Қушбеги МФЙ Шипон қишлоқ ички йўлини жорий таъмирлаш учун лойиҳа-смета, экспертиза хужжуатларини тайёрлаб бериш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	12 549 000.00
Стартовая сумма	12 549 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танлаш иштирокчисининг молиявий кўрсаткичлари, салоҳияти (2019-2020-2021 йиллар бўйича) тўловга қодирлиги ва айланма маблағлар билан таъминланганлиги тўғрисида маълумот.

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OOO AMIRSHOX STROY QURILISH	20	20	15	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	20	1	20	Экспертная		
ROAD AND CIVIL ENGINEERING MCHJ	20	20	15	Экспертная		

Критерий №2 Лойихачи ташкилотнинг ташкилий структураси

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OOO AMIRSHOX STROY QURILISH	5	5	5	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	5	1	5	Экспертная		
ROAD AND CIVIL ENGINEERING MCHJ	5	5	3	Экспертная		

Критерий №3 Лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш жараёнида ёрдамчи лойиха ташкилотни жалб қилиш тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OOO AMIRSHOX STROY QURILISH	5	5	5	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	5	1	5	Экспертная		
ROAD AND CIVIL ENGINEERING MCHJ	5	5	0	Экспертная		

Критерий №4 Лойихалаш (Курилиш) майдонини кўрганлик ва лойихани ўрганганлик тўғрисида маълумотнома.

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OOO AMIRSHOX STROY QURILISH	5	5	0	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	5	1	5	Экспертная		
ROAD AND CIVIL ENGINEERING MCHJ	5	5	0	Экспертная		

Критерий №5 Мавжуд оргтехника (компьютер, принтер, лойихалаш дастурлари) ва бошқалар рўйхати

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OOO AMIRSHOX STROY QURILISH	20	20	15	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	20	1	20	Экспертная		
ROAD AND CIVIL ENGINEERING MCHJ	20	20	15	Экспертная		

Критерий №6 Лойихачи ташкилот ҳақида умумий маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OOO AMIRSHOX STROY QURILISH	20	20	15	Экспертная		
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	20	1	20	Экспертная		
ROAD AND CIVIL ENGINEERING MCHJ	20	20	10	Экспертная		

Критерий №7 Танлаш иштирокчисининг охириги уч йилда (2019-2020-2021) лойихалаш ишлари бўйича бажарган иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OOO AMIRSHOX STROY QURILISH	20	20	20	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	20	1	20	Экспертная		
ROAD AND CIVIL ENGINEERING MCHJ	20	20	15	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	12 549 000.00	11 294 100.00 UZS	11 294 100.00	00.00	11 294 100.00	29.07.2022 10:50:33	03.33
ООО AMIRSHOX STROY QURILISH	12 549 000.00	7 529 400.00 UZS	7 529 400.00	00.00	7 529 400.00	29.07.2022 08:39:03	05.00

Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
MAROQAND BUNYODKOR QURILISH	95	3.33	98.33
ROAD AND CIVIL ENGINEERING MCHJ	Не прошел	Не прошел	Не прошел
ООО AMIRSHOX STROY QURILISH	74.99965	5	79.99965

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 128415 от 04.08.2022 года на приобретение Кушбеги МФЙ Шипон кишлок ички йўлини жорий таъмирлаш учун лойиҳа-смета, экспертиза хужжатларини тайёрлаб бериш определила победителем:

MAROQAND BUNYODKOR QURILISH
301327746

и резервный исполнитель: ООО AMIRSHOX STROY QURILISH (306542864)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	RASULOV MASARIDDIN G'OFUR O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	DJAMOLOV AKMAL KAMOLOVICH	Согласен	
Член комиссии	ASHUROV FAZLIDDIN XAMROQULOVICH	Согласен	
Член комиссии	QODIROV RAVUBJON RAXMONOVICH	Согласен	
Член комиссии	NURMOMATOV NAG'MATILLO MIYASSAROVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

Uzbekistan Respublikasi
Samarqand shahar hokimligi

Yuridik shaxslar davlat ro'yxatida qayd etilgan holda

GUVOHNOMA

Raqibning nom nomini - 56

2023 yil 24 sentabr

Shaxsning yuridik shaxs sifatida qayd etilganligi haqida
ma'lumot berilganligi haqida

Shaxsning nomi

Shaxsning manzili

Shaxsning tashkiloti

Shaxsning davlati

Shaxsning turi

Shaxsning yuridik shaxs sifatida qayd etilganligi haqida

Shaxsning yuridik shaxs sifatida qayd etilganligi haqida

Shaxsning nomi

№	Shaxsning nomi	Shaxsning manzili	Shaxsning tashkiloti	Shaxsning davlati	Shaxsning turi
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					
8					
9					
10					



O'zbekiston Respublikasi
Samarqand shahar hokimligi

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida

GUVOHNOMA

Reestrdaagi tartib raqami - 5667

№ 03945

2009 yil 24 sentyabr

Mazkur guvohnoma yuridik shaxs «MAROQAND BUNYODKOR QURILISH»
mas'uliyati cheklangan jamiyatiga berilgan.
(o'zbek tilidagi to'liq nomi)

Tashkiliy-huquqiy shakli	THSh 1152
Mulkchilik shakli	MSh 142
Pochta manzili	MHOBT 1718401
Yuridik shaxs kodi	KTUT 22938652
Tarmog kodi	XXTUT 61110
Soliq ro'lovchining identifikasiya raqami	STIR 301327746
Qo'shimcha ma'lumotlar:	

Inspeksiya boshlig'i



S. Shodiboev



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРИЛИШ ВАЗИРЛИГИ

ЛИЦЕНЗИЯ

№ 031552

MAROQAND BUNYODKOR QURILISH

Архитектура-шаҳарсозлик ҳужжатларини ишлаб чиқиш фаолияти учун лицензия

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ

АЛ-001767

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)

301327746

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ

29.04.2021дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)

Самарқанд вилояти, Самарқанд шаҳри, КУК САРОЙ МАЙДОНИ 1-БЛОК, "В" 1-КАВАТ

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН

Ўзбекистон Республикаси Қурилиш вазирлиги

29.04.2021

ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Фаолият тури

Саноат қурилиши учун объектлар ва комплекслар лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш, шу жумладан, уларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш

Сув ҳўжалиги қурилиши учун объектлар ва комплекслар лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш, шу жумладан, уларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш

Энергетика қурилиши ва алоқа объектлари ҳамда комплексларини лойиҳалаштириш, шу жумладан, уларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш

Архитектура ёдгорликларини таъмирлаш учун ҳужжатлар

Транспорт ва йўл қурилиши объектлари ҳамда комплексларини лойиҳалаштириш, шу жумладан, уларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш

Бинолар ва иншоотларнинг техник ҳолатини текшириш

Уй-жой-ҳўжалик қурилиши учун объектлар ва комплекслар лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш, шу жумладан, уларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш

Умумий фойдаланиладиган автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлаш учун лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш

Қўшимча маълумотлар

ОБЕКТЛАРНИНГ МУРАККАБЛИК ТОИФАЛАРИ

Тоифа

III - Тоифа



